

OLMOSH SO‘Z TURKUMINI INTERFAOL METODLAR ASOSIDA O‘QITILISHI

Kuvatova Nafisa Zayerjonovna

SamDChTI akademik litseyi

ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada ona tili darslarida beriladigan bilim, malaka, ko‘nikmalar, ona tili darslarining maqsad va vazifalari, olmosh so‘z turkumining akademik litseylarda o‘qitish va olgan bilimlarni mustahkamlash usul va metodlari haqida fikr yuritiladi

Kalit so‘zlar: so‘z turkumlari, morfologiya, olmosh so‘z turkumi, ijodiy-amaliy topshiriq, didaktik materiallar

Mingyillik tarixga ega boy tillardan biri bo‘lgan ona tilimiz millatimiz uchun milliy o‘zligimiz va bebaho qadriyatimizdir. Ona tilimizning davlatimiz va jamiyatimiz hayotidagi ta’siri, va dovrug‘ini yanada yuksaltirish zarur.

Akademik litseyda ona tili darslarining maqsadi o‘quvchi yoshlarning o‘g‘zaki va yozma nutqiy savodxonligini oshirish, ona tilimizning sofligini saqlagan holda nutq shakllantirish ko‘nikmalarini hosil qilishdir.

Shu narsa ma’lumki, ta’lim tizimidagi barcha fanlar, shu jumladan, ona tili darslarida ham didaktik materiallardan, ko‘rgazmali vositalardan, turli xil qiziqarli o‘yin va topshiriqlardan foydalanish yuqori natijalar beradi. Bu haqda bir qator mutaxassislar, xususan, K. Usmonova, A. Nisanbayeva, R. Ishmihamedov, kabi tilshunoslar o‘zlarining tadqiqotlarida, shu mavzudagi monografiyalarida fikr yuritganlar.

O‘quvchilar so‘z turkumlari, ularni guruhlarga bo‘lish, mustaqil va yordamchi so‘z turkumlari va ularni farqlashni boshlang‘ich sinflarda o‘rganishib, turkumlar haqidagi tushunchalari shakllanib boradi. Yuqori sinflarda o‘rganilayotgan tushunchalar uning mantiqiy davomidir.

Akademik litseyda morfologiya bo'limini o'qitishning ilmiy va amaliy asoslari bor. Ilmiy tomoni shuki, Sintaksis bo'limini o'rganishda morfologiyada o'rganilgan yordamchi so'z turkumlari, kelishik, egalik, shaxs-son shakllari so'z birikmasi va gapni shakllantirishda xizmat qiladi(1, 54) Amaliy tomoni esa nutqiy savodxonlikni oshiradi.

O'qituvchi o'quvchilarga so'z turkumlari haqida ma'lumot beradi. Mavzu bo'yicha o'rganilgan bilimlarni takrorlash uchun xattaxtaga turli turkumlarga mansub so'zlar yozadi.

Xattaxtagidagi so'zlar

Xushbichim, serjilo, badhazm, xushhavo, badbo'y, tom, tosh, go'zal, kichik, saraton, bilimli, shunday, bu, o'n birlar, uch-to'rt, sakson, oq, o'qidi, yozdi, ishladi, shoshildi, salomlashdi.

- 1- Topshiriq: "Pinbord" metodi asosida yozgan so'zlarni qaysi so'z turkumiga mansubligiga ko'ra guruhlang
- 2- Topshiriq: So'zlarni ma'nolarini izohlang.
- 3- Topshiriq: So'z birikmalari hosil qiling.

Shu tariqa so'zlarni sharhlash va yozish orqali o'quvchilarda:

- 1)tafakkur doirasi kengayadi;
- 2)yoza savodxonligi oshadi;
- 3)fikr ifodalash ko'nikmasi rivojlanadi;
- 4)nutqda so'z qo'llash malakasi shakllanadi;
- 5)so'z turkumlari yuzasidan olingan bilimlari umumlashtiriladi.

Mustaqil so'z turkumlaridan biri olmosh so'z turkumi hisoblanadi. Quyi sinflarda ma'no turlari, gapdagi vazifasi haqidagi bilimlar o'zlashtirilgan. Shu o'rganilgan ma'lumotlar qaytadan ta'limiy mashqlar orqali tiklatilib, so'z turkumi haqida kengroq tushuncha beriladi.

Dastur talabiga ko'ra, mazkur so'z turkumining lug'aviy ma'nosi, ma'no turlari(kishilik, ko'rsatish, gumon, belgilash, bo'lishsizlik, so'roq, o'zlik olmoshlari) morfologik va sintaktik(qaysi so'z turkumlari bilan birikishi, gapdagi vazifasi)

xususiyatlari haqida bilim va ko'nikmalar amaliy ishlar orqali o'quvchilar ongiga singdiriladi. Bu mustaqil ishlarni bajarish orqali quyidagi xulosaga keladilar. Shundan so'ng "Olmosh uslubi" mavzusi o'rganiladi. O'quvchilar yetti tur (kishilik, ko'rsatish, gumon, belgilash, bo'lishsizlik, so'roq, o'zlik olmoshlari) ning bir-biridan farqli tomonlari mavjud ekanligini tushunib yetadilar.

Olmoshning ma'no turlari o'tilar ekan, ifodalagan ma'nosiga ko'ra guruhlashni o'rganadilar va amaliy mashqlar, ta'limiy o'yinlar yordamida mustahkamlaydi. Bu singari ijodiy-amaliy ishlar o'quvchilarning savodxonligini oshirish va lug'at boyligini kengaytirish uchun xizmat qiladi.

Olmoshning morfologik xususiyatlari o'rganilar ekan, olmosh tarkibiga egalik va kelishik shakllarining qo'shilishi, ularning imlosi bilan tanishadilar. Ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish o'rganilayotgan ob'yektning puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Olmosh so'z turkumi haqidagi bilimlarni mustahkamlash, ularni uslubi bilan bog'lab rivojlantirish uchun har xil mavzudagi matnlardan foydalansa bo'ladi.

Matn asosida quyidagi topshiriqlarni bajarish mumkin

- 1-Topshiriq: olmoshlarni topib, ma'nosiga ko'ra ajrating
- 2-Topshiriq: qaysi so'z turkumi o'rnida qo'llanganligini toping
- 3-Topshiriq: fonetik qoida asosida yozilgan olmoshlarni ajrating va izohlab bering.
- 4-Topshiriq: olmoshlar qaysi so'z turkumi bilan bog'langan va gapdagi sintaktik vazifasini toping.

Ona tili mashg'ulotlarini ana shunday rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari, mashqlar va matn tahlillari yordamida olib borish tizimli va izchil bilim olishga zamin hozirlaydi, ta'lim sifatini oshirib, o'quv-biluv faoliyatini tezlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, morfologiyani puxta o'zlashtirish o'quvchi mustaqil va ijodiy tafakkur doirasini kengaytirib, so'zning turli shakllarini gap tarkibida qo'llash va bog'lanishli nutqda o'rinli ishlatish ko'nikmalarini hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdurahmonov G'. Xo'jayeva D. Hozirgi o'zbek adbiy tili(akademik litseylar uchun darslik).-T.:O'qituvchi, 2003
2. Jamolxonov N. . Hozirgi o'zbek adbiy tili(akademik litseylar uchun darslik).-T.:O'qituvchi, 2005
3. Nurmonov A. O). O'zbek tilshunosligi tarixi.-T.:O'qituvchi, 2002